

Date: 19th April-2025

**PSIXOLOGIYADA ONALIK DEPRIVATSİYASINING EKSPERIMENTLARDA
O'RGANILGANLIGI**

Xudayberdiyeva Nilufar Xasan qizi

A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi psixologи nilufar-muradova@mail.ru

Annotatsiya: Tirik mavjudodning ilk hissiyoti onaga muhabbat. Shaxsning to'laqonli rivojlanishi uchun ona bilan munosabat o'rnatilishi kerak. Onaga bo'lган muhabbat keyinchalik paydo bo'ladigan qo'rquv va agressiyani tormozlaydi, buning natijasida bola ushbu tuyg'ularni yangilikka munosabat sifatida emas, haqiqiy havfli vaziyatlardagina boshdan kechiradi.

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilganidek eng chuqur tasvirlangan faktlar- ontogenet bosqichlarda paydo bo'ladigan onaning g'amxo'rlik qilishining iliqligi va barqarorligiga asoslangan asosiy his ya'ni dunyoga bo'lган ishonchni shakllantiradi. To'satdan bola mehr deb hisoblagan sutdan ajralish chuqur bolalik depressiyasiga yoki biroz yengil, biroq davomiy depressiv ranglar bilan bo'yalgan qayg'uni olib kelishi mumkin. Ishonch nafaqat hayotga umid bag'ishlaydi, balki o'ziga atrofdagi insonlarga ishonchni ta'minlaydi. Bunday insonlar o'zlariga shunchalar ishonishadiki, atrofdagi odamlar doimo ular bilan birga bo'lish bo'lmasligi muhim emas. Ana shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida uchraydigan onalik deprivatsiyasi shaxslararo munosabatga ta'sirini o'rganish ham bu mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

Kalit so'zlar: Mehribonlik uyi, onalik deprivatsiyasi, ekstrimal vaziyatlardagi emotsiyonal holatlar, "yumshoq ona", go'daklik davri.

Muloqot fikrlar, his-tuyg'ular, tajriba almashishni o'z ichiga oladi. Shubhasiz aloqa jarayonida odamlar ongli ravishda yoki ongsiz ravishda bir-birining ruhiy holati, his-tuyg'ulari va ishlariiga ta'sir qiladi. Aloqa funktsiyalari juda xilma-xil, bu har bir kishini shaxs sifatida shakllantirish, shaxsiy maqsadlarni amalga oshirish va bir qator ehtiyojlarni qondirishning hal qiluvchi shartidir. Muloqot insonlarning birgalikdagi faoliyatining ichki mexanizmini tashkil qiladi va inson uchun eng muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

XX asrning eng mashhur onasi-Xarlou ona. Viskonsin universitetining amerikalik olimi X.Xarlou 50-yillardan boshlab makaka-rezusda eksperiment olib borishni boshlagan. Ona Xarlou – hozirgi zamonning alternativlaridan biri maymun- onalarning tabiatni sevishini ixtiro qilgan. Xarlou eksperimentlaridagi olingan natijalari bilan tanishib chiqmasdan turib onalik deprevatsiyasi va mehr berish muammolarini o'rgana olmaymiz.⁷

Keling, Xarlouning ilk tajibalari bilan tanishamiz. Yangi tug'ilgan maymun bolasini onasidan ajratib oldindan tayyorlangan qafasga solib qo'yishdi. Qafas ichida ikkita yasalgan sun'iy maymun ona bor edi. Birinchi maymun simlardan yasalgan va tug'ilgan chaqaloq maymunni ko'krak suti bilan boqa olardi. Ikkinci maymun ona ko'krak suti bilan

⁷ Прихожан А.М., Толстых Н.Н. Психология сиротства – М.: Педагогика, 1990. – 160 с.

Date: 19th April-2025

boqa olmasdi, lekin uni tanasi yumshoq, yoqimli va issiqligini his etib turardi. Bu esa psixologiyada «yumshoq ona» termini bilan kirib keldi.

Qaysi ona yaxshi emizadigan lekin sovuqqon yoki emizmaydigan lekin mehrli. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki kichik makaka kunning 17-18 soatini yumshoq ona bilan o'tqizadi. Qornini to'ydirib bo'lgandan so'ng darhol yumshoq onaga qaytadi. Xarlouni ta'kidlashicha yumshoq ona bolani emotsiyonal comfort bilan ta'minlay oladi. Xarlou eksperimentidan shu narsa aniq bo'ladiki tana bilan aloqa tabiiy ehtiyojni qondirishdan ko'ra muhimroq hisoblanadi. Makaki xotirasida uni oziqlantirgan ona emas balki yumshoq ona obrazni butun hayoti davomida saqlanadi. Xarlou quyidagicha kuzatuv o'tqizdi: makaka bolalari bir necha yillar davomida onasinining o'rnni bosuvchi maymunlarni ko'rishmadi ularni yodga oladigan hech qanday vaziyat va holat bo'lmasdi. Yillar o'tib qafasga solinganida o'sha yumshoq onani bag'riga bosdi. Yumshoq onani doim o'zi bilan olib yurar xuddi onasiday g'amxo'rlik qilar edi. Yumshoq onasi kelmagunicha ovqatlanmas edi.

“Xarlou ona”ga bo'lgan muhabbat deyarli barcha bolalar yumshoq, momiq va katta o'yinchoqlarga ehtiyoj sezishini tushunishga imkon beradi. Ko'pchilik, ayniqsa maktabgacha bo'lgan davrdagi bolalar bunday o'yinchoqlarsiz ustay olishmaydi. Mutahassislar ta'kidlashicha bolaning normal rivojlanishi uchun yumshoq o'yinchoqlar zarur. Ayniqsa mehribonlik uylarida ona mehrisiz tarbiyalanayotgan bolalar uchun. Onaning mavjudligi nafaqat turli emotsiyonal havotirlanishning oldini olishga balki, yoqimsiz emotsiional tajribalardan, turli hayotiy qiyinchiliklarga dosh berish va yechim topa olish, haovtirli vaziyatlardan kamroq qo'rqishga va faol bo'lish uchun yordam beradi.

Etolog D.Liddell ikkita qo'zichoq bolalarini eksperiment sifatida o'rganadi. Biri onasi bilan ikkinchisi onasiz tarzda doimiy yengil ekektr toki uradi. Aniqlanishicha onasiz qo'zichoqning hatti-harakatlari cheklangan, burchak borligini bilmaydi, harakatsiz muzlab bir joyda turadi. Onasi bilan birga bo'lgan qo'zichi esa xatti-xarakatlari ancha ishonchli edi. Xuddi shu Tajriba uch hafta davomida egizak-qo'zichoqlarda o'tkazildi. Qiziqarlisi ularda ham xuddi shu hatti-harakatlar takrorlangani kuzatilgan. Ikki yildan keyin huddi shu eksperimental xonada yana qaytadan eksperiment o'tkazildi. Bu safar ikkala qo'zichoq ham onasiz edi. Onasi bilan yoshligida birga bo'lgan bola o'zini bu holatda juda sokin tutdi, onasiz katta bo'gan qo'zichoq esa qo'rquv va havotirni boshidan o'tkazdi.⁸

Ushbu tadqiqotlarni o'qib, ikkinchi jahon urushida Londondagi eksperimentni eslamasak bo'lmasdi. Ommaviy hujumda omon qolgan ikki guruh bolalar solishtirildi. Birinchi guruhdagi bolalar Londondagi hujum vaqtida ota-onasi bilan birga havf ostida bo'lishgan. Ikkinci guruh bolalari Londonda faqatgina bomba ovozlarini havfligini tasavvur qilmasdan turib eshitishgan. Bu guruhdagi bolalar Londondan ota-onasiz evakuatsiya qilingan va ota-onai qaramog'idan mahrum bo'lishgan. Bir necha haftadan keyin ularning emotional reaksiyalari o'rganilganda ulardagi qo'rquv, ichki konfliktlar birinchi guruhdagi bolalarga nisbatan anchayin jarohatlanganligi aniqlangan.

8

Прихожан А.М., Толстых Н.Н. Психология сиротства – М.: Педагогика, 1990. – 160 с.

Date: 19th April-2025

Y.Langmeyer va Z.Mateychekalarning kitobida bir qator tajribalardan ko'rinaldiki bolaning hayotidagi ekstrimal vaziyatlardagi emotsional holatlar ularning rivojlanishi bolaning onasi bilan boshdan kechirganmi yoki yo'qligiga bevosita bog'liq. Fransuz olimi Syutter fikricha, ona bilan birga evakuatsiya qilingan bolalar, ota-onasiz evakuatsiya qilingan bolalarga nisbatan anchayin emotsional barqarordir.⁹

Slovakialik tadqiqotchi M.Damborska 6-10 oylik mehribonlik uyidagi bolalar bilan xuddi shu davrdagi oilada katta bo'layotgan bolalarni tajriba qildi. M.Damborska bolalarga yangi va noma'lum o'yinchoqlar berdi. Mehribonlik uyidagi bolalar oilada tarbiyalanayotgan bolalalarga nisbatan yangi o'yinchoqlardan 7 barobar qo'rqishgan.

Shu kabi tadqiqotlar rus psixologlari N.N.Avdeyeva va S.Y.Mesheryakova tomonidan ham o'tkazilgan. Bolaning hayotidagi birinchi yilida mehribonlik uyi va oilada tarbiyalanayotgan tengdosh bolalarga turli o'yinchoqlar sovg'a qilingan. Oilada tarbiyalanayotgan bola tabiiyki qo'rqgan keyin esa onasidan yordam so'ragan sekin astalik bilan o'yinchoqni ushlagan, quchoqlagan va o'ynay boshlagan. Mehribonlik uyidagi bolalarda umuman boshqacha hatti-harakat kuzatilgan. Yangi o'yinchoqlardan qo'rqb hamshiraning halati ortiga berkinishgan

va o'yinchoqlarni qo'li bilan ushlashmagan. Ushbu bolalarning xulq-atvori Xarlou maymunlaridagi "sovuj" va "iliq" onaga o'xshaydi.¹⁰

Xarlou bola o'yinchoq bilan o'ynashi uchun asosiy sharoit ya'ni onasi yonida u uchun yangi, kutilmagan, noodatiy, g'ayritabiyy hodisalarni qo'rmasdan, havotilanmasdan, to'xtab qolmasdan aksincha faolligini ta'minlagan holatda birga bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi.

Ushbu g'oya shaxs rivojlanishi nazariyasini ishlab chiqqan shu sohadagi eng yaxshi mutahassis amerikalik psixolog E.Erikson tomonidan quyidagicha talqin qilingan, dunyoga bo'ljan asosiy ishonch va ishonchsizlik rivojlanishning sakkiz bosqichining birinchi bosqichi hisoblanadi. Bolaning ilk rivojlanish bosqichida o'quvchining onaning ko'krak sutidan ajratish vaqtini quyidagicha ta'riflaydi:

....sutdan ajratish go'dak uchun to'satdan onaning mavjudligini to'xtashi mumkin emas. To'satdan bola mehr deb hisoblagan sutdan ajralish chuqur bolalik depressiyasiga yoki biroz yengil, biroq davomiy depressiv ranglar bilan bo'yalgan qayg'uni olib kelishi mumkin. Ishonch nafaqat hayotga umid bag'ishlaydi, balki o'ziga atrofdagi insonlarga ishonchni ta'minlaydi. Bunday insonlar o'zlariga shunchalar ishonishadiki, atrofdagi odamlar doimo ular bilan birga bo'lmasligi kerak.¹¹

O.Klark va J.Xanisi (1982) AQSHga kelishidan oldin mehribonlik uyida va kasalxonalarda yashagan osiyolik bolalar guruhini o'rganishgan. Ulardan ko'pchiligi jiddiy kasalliklar bilan kasallangan ota-onasini va yaqinlarini urush vaqtida yo'qotgan bolalar bo'lishgan. AQSHda ularga yaxshi qaraydigan oilalarga topshirilgan. Ikki-uch yildan so'ng bolalar intellekt va ijtimoiy yetuklik test ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada o'sishgan.

⁹ Йозеф Лангмайер, Зденек Матейчек. Психическая депривация в детском возрасте Медицинское издательство, Прага 1984, ЧССР

¹⁰ Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. — М.: Аспект Пресс, 2001.

¹¹ Элкинд Д. Эрик Эриксон и восемь стадий человеческой жизни / [Пер. с. англ.] — М.: Когито-центр, 1996

Date: 19th April-2025

R.Shpits va J.Boulbi mehribonlik uylari, kasalxonalardagi, internatlardagi ota-onas qaramog'isiz, oilasiz tarbiyalanayotgan bolalarni kuzatib, ushbu sohada ilmiy asoslangan haqiqiy revolyutsiya qilishdi.¹²

R.Shpits birinchi bo'lib bolalar mehribonlik uylarida va kasalxonalarda qanday yashayotganlarini nafaqat ilmiy asoslab berishni, balki videotasmalarga muhirlashni o'ziga vazifa qilib belgilagan. O'sha vaqtarda bu o'ta murakkab ish hisoblangan.¹³

R.Shpits mehribonlik uyidagi olti oylik bolalarni tahminan quyidagicha ta'riflaydi:

«..... Bolalar o'z joylarida doimiy passiv va qimirlamay beli bilan yotishardi. Ular hattoki qorni bilan yotishni eplay olishmasdi. Yuzlar bo'shashgan,

ko'zlarning harakatlari zaif, yuz o'ziga xos ifodaga ega. Biroz vaqt o'tgach, harakatchanlik takrorlangan»¹⁴

J.Boulbi kuzatuvlariga ko'ra olti oylik bola ajralishning birinchi bosqichida onasini talab qilib yeg'laydi yoki uning o'rnini bosa oladigan insonni qidiradi. Ajralishning ikkinchi bosqichida bolaga begona odam yaqinlashsa baqirishni boshlaydi. Uchinchi bosqichda esa, bola dunyo bilan ijobiy munosabatni uzadi, apatiya va autizm rivojlanishni boshlaydi.

J.Boulbi tomonidan o'smir yoshdagi jinoyatchilarni o'rganilgan. Unga ko'ra besh yoshgacha bo'lган davrda onalaridan ajralgan jinoyatchi o'smirlar bo'lib chiqishgan. Shuningdek, oiladan ajralish vaqtining omili uydan uzoqroq bo'lishdan ko'ra muhimroq bo'lib chiqdi.¹⁵

J.Boulbi tadqiqotlarida tug'ilgandanoq onadan ajralgan o'smirlar olti oylik yoki keyinroq onadan ajralgan o'smirlardan farq qiladi. Tez-tez qonunni buzadiganlar aynan ikkinchi guruh edi, ular antisotsial hatt-harakatlar bilan tavsiflanadi. Tug'ilgandanoq onasidan ayrilgan bolalar huquqbazarlikka moyil emaslar, ular shunchaki shaxslararo munosabatlarda yopiq va aloqasiz edi.

Uzoq yillik tadqiqotlar xulosalarini umumlashtirgan J.Boulbi bolaning uzoq yillik onadan ajralishining birinchi 3-5 yilligi psixologik buzilishga va butun hayoti davomida shaxs bo'lib shakllanishiga, shaxslararo munosabatlariga ta'sir qiladi. Tug'ilgandanoq onalik deprevatsiyasini his qilgan bola tipini J.Boulbi «hissiyotlarsiz harakter» deb nomlaydi. «hissiyotlarsiz harakter» tipini J.Boulbi quyidagicha ifodalagan: intellektual ortda qolish, shaxslararo munosabatlarni o'rnata olmaslik, emotsiunal reaksiyalarda aggressivlik, o'ziga ishonmaslik.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona mehrining yetishmasligi nafaqat shaxslararo munosabatlarga, balki inson hayotining barcha jabhalariga ta'sir o'tqazadi. Har bir shaxs hayoti, oilasi va farzand tarbiyasi uchun ma'suliyatni anglagan holda o'z bo'yniga olishi zarur. Shundagina maqolada keltirilgan onalik mehrining yetishmasligi sababidan kelib chiqadigan psixologik muammolarni oldini olgan bo'lamiz.

¹² Боулби Дж. Создание и разрушение эмоциональных связей. М., 2004.

¹³ Шпиц Р.А., Коблинер В.Г. Первый год жизни. М., 2000.

¹⁴ Шпиц Р. Психоанализ раннего детского возраста. М., 2001.

¹⁵ Боулби Дж. Создание и разрушение эмоциональных связей. М., 2004.

Date: 19th April-2025

FOYLALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Прихожан А.М., Толстых Н.Н. Психология сиротство – М.: Педагогика, 1990. – 160 с.
2. Йозеф Лангмайер, Зденек Матейчек. Психическая депривация в детском возрасте Медицинское издательство, Прага 1984, ЧССР
3. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. — М.: Аспект Пресс, 2001.
4. Элкинд Д. Эрик Эриксон и восемь стадий человеческой жизни / [Пер. с. англ.] — М.: Когито-центр, 1996
5. Боулби Дж. Создание и разрушение эмоциональных связей. М.,2004.
6. Шпиц Р.А., Коблинер В.Г. Первый год жизни. М., 2000
7. Шпиц Р. Психоанализ раннего детского возраста. М.,2001.

Боулби Дж. Создание и разрушение эмоциональных связей. М.,2000